

MOLIYAVIY HISOBOTLARNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS)NING NAZARIY ASOSLARI

Abduxalilova Jamila Ixtiyor Qizi

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezis O'zbekiston bank tizimidagi tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini joriy qilishning amaldagi holati va uni takomillashtirishga bag'ishlangan. Tadqiqot maqsadi moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini joriy qilishning mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobotlar , balans, aktiv va passiv, hisobot turlari moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot, foyda va zarar to'g'risidagi hisobot

Kirish

O'zbekistonda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etish va ularni amaliyotga to'liq tatbiq etish jarayoni mamlakat bank tizimining shaffofligi hamda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, MHXS talablariga muvofiq hisobotlarni tuzish, moliyaviy ko'rsatkichlarning xalqaro mezonlar asosida taqdim etilishi orqali tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish va xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvini tezlashtirish mumkin.

Ushbu standartni qo'llashning asosiy maqsadi moliya, biznes va qarorlar dunyosining barqarorligi va maksimal darajada oshkoraligini qo'llab-quvvatlashdir. Faqat shunday holatda kompaniya o'zining rivojlanishi va kengayishini namoyish etib, investorlarning e'tiborini jalb qila oladi. Bu, ayniqsa, Yevropa Ittifoqi, Osiyo va Janubiy Amerika uchun dolzarb masaladir. O'zbekiston ham bular qatorida. MHXS talablariga muvofiqlik raqobatchilar uchun kuchli asosdir, chunki investorlar uchun bu ko'rsatkich ko'pincha tanlovning to'g'riligini kafolatlaydigan hal qiluvchi mezon hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi

O'zbekiston Respublikasidagi tijorat banklarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati jarayonida shakllanadigan moliyaviy hisobot tizimi hamda ularni xalqaro standartlar asosida yuritish va boshqarish mexanizmlaridir. Tadqiqot predmeti esa tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga (MHXS/IFRS) muvofiqligini ta'minlash, ularni joriy etish va takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy usullari, jumladan, xalqaro hisob va hisobot standartlari, risk asosida baholash metodlari, ichki audit tizimlari, raqamli texnologiyalar (Business Intelligence, Big Data, AI asosida monitoring)ni qo'llash orqali bank hisobotlarining shaffofligini oshirish masalalarini qamrab oladi.

Shunday qilib buxgalterlik hisobotlarida taqqoslanuvchanlik yetishmasligi mumkin. Bu holatning noqulayligi shundaki, moliyaviy hisobotdan foydalanadigan investitsion tahlilchilar va boshqa foydalanuvchilar hisobotni tahlil qilish jarayonida uning tarli standartlarga binoan tuzilganligi tufayli qo'shimcha xarajatlar qilishiga to'g'ri keladi. Ular hisobotlar interpretatsiyasida chalkashliklarga duch kelishlari ham mumkin. Ushbu jarayon bilan bog'liq holda kapitalning jahon bozorida samarali raqobat yomonlashishi, kompaniyalar esa kapitalni saqlash bo'yicha yuqori sarf-xarajatlarni o'z zimmlariga olishlariga to'g'ri keladi. Eng asosiysi, turli mamlakatlar uchun turlicha foyda miqdori ko'rsatilishi oqibatida buxgalterlik hisobotlariga ishonch yo'qoladi.

Moliyaviy hisobotni taqdim etish kabi MHXSning asosiy maqsadiga erishish uchun quyidagilar belgilanishi kerak:

- vazifalarni echish uchun talab etiladigan moliyaviy ma'lumot;
- axborot tizimini tuzish tamoyillari;
- moliyaviy hisobot elementlari

Moliyaviy hisobot foydalanuvchilar tomonidan qabul qilinadigan iqtisodiy qarorlar, korxonani pul mablag'lari va ularni ekvivalentlarini yaratish va ko'paytirish, shuningdek bu jarayonni barqarorligi va o'z vaqtida amalga oshirilishi imkoniyatini baholashni talab etadi. Foydalanuvchilar, korxonaning pul mablag'lari va ularni ekvivalentlarini yaratish qobiliyatini baholashi uchun, korxonaning moliyaviy ahvoli, faoliyat natijalari va moliyaviy ahvoldagi o'zgarishlarga yo'naltirilgan ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak.

Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS)da bank aktivlarini to'g'ri tasniflash, ularning qadrsizlanishini baholash va moliyaviy natijalarga ta'sirini aniqlash nazariy asoslarning ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu tasnif tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi, daromadlilik darajasi va likvidlik ko'rsatkichlarini belgilovchi asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. MHXS talablari bank aktivlarining har bir turini alohida baholash va ularning qadrsizlanish ehtimolini inobatga olishni taqozo etadi. Naqd pul va pul ekvivalentlari – MHXSga ko'ra, eng likvid aktivlar qatoriga kiradi va ular kassadagi mablag'lar, Markaziy bankdagi hisobvaraqlar hamda qisqa muddatli moliyaviy vositalarni o'z ichiga oladi. Bu aktivlar bankning qisqa muddatli majburiyatlarini tezkor bajarishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, ortiqcha likvidlik resurslardan foydalanish samaradorligini pasaytirishi mumkin, bu esa MHXSda aktivlarni samarali boshqarish zaruriyatini belgilaydi.

Xulosa

Moliyaviy hisobotda beriladigan axborot ishonchli bo'lishi uchun taxminlardan mustaqil bo'lishi lozim. Moliyaviy hisobot ma'lumotning tanlash va takdim etishi bilan qarorlarni qabul qilinishiga yoki oldindan belgilangan natija yoki yakunga yetishish maqsadida fikrni shakllantirishga o'z ta'sirini ko'rsatsa u betaraf deb hisoblanishi mumkin emas.

. Hisobotlarni Xalqaro Standartlarga Moslashtirish afzalliklari

• IFRS Standartlarini O'rganish: IFRS (Xalqaro Moliyaviy Hisobot Standartlari) asosida hisobotlarni tayyorlashni boshlash. Ularning har bir talabi va qoidalarini o'rganish va tatbiq qilish.

• Moliyaviy Hisobotlarni Modernizatsiya Qilish: Hisobotlarning tarkibini va formatini xalqaro standartlarga moslashtirish.

Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS) banklar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun moliyaviy axborotni xalqaro darajada taqqoslanadigan, shaffof va ishonchli tarzda taqdim etish imkonini beradi. MHXSning nazariy asoslari, avvalo, moliyaviy hisobotlarning foydalanuvchilar uchun foydali bo'lishini ta'minlovchi tamoyillar va sifat xususiyatlarini o'z ichiga oladi ATB "Agrobank" moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga to'liq muvofiqlashtirish uchun quyidagi takliflar beriladi:

• Ma'lumotlar bazasini kengaytirish: Mikro-panellar va zarur empirik ma'lumotlarni shakllantirish, bu bankning kredit portfeli va aktivlarining dinamikasini to'g'ri tahlil qilishga imkon beradi.

• Dashboard tizimining kengaytirilishi: Raqamli tizimlar orqali har bir filialning moliyaviy ko'rsatkichlarini tezkor kuzatib borish va kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish imkonini beruvchi tizimlarni kengaytirish zarur.

• Samaradorlikni oshirish: DEA va SFA metodlarini qo'llash orqali bankning samaradorligini baholash va kredit resurslarini oqilona taqsimlashni ta'minlash kerak.

O'zbekistonda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini joriy qilishning amaldagi holati, ayniqsa ATB "Agrobank" misolida, rivojlanayotgan jarayondir. Biroq, hali ham zarur bo'lgan empirik ma'lumotlar va tizimlar to'liq shakllanmagan. Ularni shakllantirish va ilg'or texnologiyalarni qo'llash bankning risklarni boshqarish, rezervlar yetarliligini hisoblash va xalqaro standartlarga muvofiq hisobotlarni taqdim etishda muhim rol o'ynaydi. Bunday chora-tadbirlar orqali bank tizimining samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" Qonun yangi tahriri (13.04.2016 yildagi O'RQ-404 son)

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risidagi" qarori

3. "MHXS hujjatlari O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun tan olindi" nomli maqola. Moliya press, 13.12.2022

4. Ibragimov A.K (2016). Banklarda buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. BMA «Moliya», 2016 y. -370 b

5.2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi. PF-60 28.01.2022

6. Muzrapova Shahnoza Saydullayevna. "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibi" Ta'lim fidoyilari, vol. 16, no. 3, 2022, pp. 225-234.

7. <http://www.mf.uz>.

8. <http://www.lex.uz>.

9. <http://www.cbu.uz>.

10. www.agro.uz